



## ULUG'BEK HAMDAM HIKOYALARINING LINGVOPOETIK

## TAHLILI

*Sharipova Dilafruz Sattarovna**dsaripova882@gmail.com*

**Аннотация** *Улуг'бек Хамдамнинг "Vatan haqida qo'shiq" hamda "Pillapoya" hikoyalari an'anaviy psixoanalitik yo'nalishdagi ramziylikka asoslangan hikoyalardan biridir. Har qanday badiiy asarning saviyasi, uning badiiyligi, tasvir usullarining rang-barangligi undagi voqealar rivojining ketma-ketligi va ishonarliligi bilan belgilanadi. Ijodkorning "Vatan haqida qo'shiq", hikoyasida reallik bilan g'ayritabiiylikning hamda ertaknamo usullarning fanatastika bilan chatishib ketganligining guvohi bo'lamiz. Ijodkor hikoyalarida bugungi kunning dolzarb muaamolarini falsafiy g'oyalar orqali ochib berishi e'tiborga loyiq. Yozuvchi hikoyalarining bayon uslubi, shakl va mazmun jihatidan uyg'unligi, an'anaviy va modernistik uslubning uyg'unligi bilan ajralib turadi. Ijodkorning "Vatan haqida qo'shiq", "Pillapoya" hikoyalarida tasvir vositalari, personajlarning xatti-harakatlarini tasvirlashda ko'chim turlarining sermahsulligi bilan ajralib turadi. "Vatan haqida qo'shiq" hikoyasida vatanga muhabbat, o'tmish ajdodlarimizning o'z yurtiga bo'lgan fidoyiliklari, ajdodlarimizning ko'rsatgan jasorati bosh qahramon obrazi orqali ochib beriladi. "Pillapoya" da esa moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi yorqin obrazlarda tasvirlab beriladi.*

**Аннотация** Рассказы Улугбека Хамдама "Песня о Родине" и "Пиллапоя" относятся к числу рассказов, основанных на символизме в традиционном психоаналитическом направлении. Уровень любого художественного произведения, его художественность, разнообразие приемов изображения определяются последовательностью и правдоподобностью развития событий в нем. В рассказе художника "Песня о Родине" мы наблюдаем



смещение реальности и сверхъестественного, сказочных приемов с фанатизмом. Примечательно, что в рассказах художника актуальные проблемы современности он раскрывает через философские идеи. Рассказы автора отличает стиль повествования, гармония формы и содержания, сочетание традиционного и модернистского стилей. Рассказы художника «Песня о Родине» и «Пиллапойя» отличаются богатством типов образности, использованных для описания поведения героев. В повести «Песня о Родине» через образ главного героя раскрывается любовь к Родине, жертвенность наших предков своей стране, отвага наших предков. В «Пиллапойе» в ярких образах описана гармония материальной и духовной жизни.

**Abstract** Ulugbek Hamdam's stories "Song about the Motherland" and "Pillapoya" are among the stories based on symbolism in the traditional psychoanalytic direction. The level of any artistic work, its artistry, the variety of image methods are determined by the sequence and believability of the development of events in it. In the artist's story "Song about the Motherland", we witness the intermingling of reality and the supernatural, and fairy-tale methods with fanaticism. It is noteworthy that in the stories of the artist, he reveals the current problems of today through philosophical ideas. The author's stories are distinguished by the narrative style, harmony of form and content, and the combination of traditional and modernist style. The artist's stories "Song about the Motherland" and "Pillapoya" are distinguished by the richness of the types of imagery used to describe the behavior of the characters. In the story "Song about the Motherland", the love for the motherland, the sacrifices of our ancestors to their country, and the bravery of our ancestors are revealed through the image of the main character. In "Pillapoya" the harmony of material and spiritual life is described in bright images.



**Kalit soʻzlar:** hikoya, koʻchim, talqin, uslub, tasvir, voqelik, xarakter, personaj, tasvir, tasviriy vosita.

**Ключевые слова:** сюжет, движение, интерпретация, стиль, образ, действительность, характер, персонаж, образ, изобразительные средства.

**Key words:** story, movement, interpretation, style, image, reality, character, character, image, pictorial means.

Ulugʻbek Hamdamning “Vatan haqida qoʻshiq” hikoyasi dastlab peyzaj tasviri bilan boshlanib, oqsoqol va bolaning xatti-harakatlari tashqi qiyofasini yozuvchi koʻchim turlari metaforik, metonimik koʻchim vositalari bilan ifodalab, tasvirda yanada orginallikka erishish maqsadida oʻxshatish, istifora kabi tasviriy vositalardan unumli foydalanadi. Xususan, quyidagi tasvirga eʼtibor bersak: “Bahorda atrofda ajib bir uygʻonishning yoqimli boʻylari ufura boshlagan tarovatli bir.

Ulugʻbek Hamdamning yuqoridagi hikoyasiga oʻxshash yana biri “Unutilgan nay navosi bilan bogʻliq xotiralar aks etirilgan. Ona yurtidan uzoqda hayot kechirgan shaxs qismati, uning mashaqatli harakatlari evaziga orttirgan boyliklari-yu, mol-mulki tugʻilib oʻsgan yurti oldida arzimas bir holat ekanligini hikoya davomida anglaysiz. Psixologik jihatdan qaraydigan boʻlsak oʻtgan kunni unutishga ming bor urunib harakat qilganimiz bilan yoki tashqi muhit bizni chalgʻitsada botiniy dunyomizning tub tubida yashayotgan xotiralar oʻchmaydi saqlanadi. Shundayin har birimiz oʻz tarixiy xotiramizga egamiz.

Qahramonimiz ham oʻtmishidan tasirlanib shu darajaga yani katta yutuqlarga erishgandir, har bir ishning oʻz asosi bor. Shu birgina kuy Alisherni yoshligi oʻtgan, butun qavm-u qarindoshlari bor qishlogʻi tobora oʻziga tortar oʻzi istamagan holda unga intilardi, qumsardi va ona yurtini sogʻinganini anglar edi. U qishlogʻiga bordi lek u yerda oʻzga insonlar, oʻzga muhitni koʻrdi, uyiga qaytganda hali hamon uni tark etmagan nay navosi oʻz yurtiga borgani bilan oʻtgan damlarni



ota onasiyu yoshligini qaytara olmasligini tushunib yetdi. Bu hikoya ham yoshlik hotiralar bilan bog‘liq voqea edi.

Ulug‘bek Hamdamning ko‘plab hikoyalarini o‘qiganingizda yangi avlod qalbida kechayotgan yangilanishlar va sermazmun ijod qilishini his etasiz. Yoshlik damlarini ko‘p eslashini, sog‘inishi, bir muddat bo‘lsada yoshligiga qaytib barcha dunyo ishlarini unutgisi kelganini sezish mumkin. Albatta bu hodisa har birimizni ong-u shurimizda yashaydi, yoshligini sog‘inmagan inson bo‘lmasa kerak, bu hodisa ko‘plab son sanoqsiz yozuvchilarimiz ijodida ko‘rishimiz mumkin. Adabiyotshunos, munaqqid Bahodir Karim nasr haqida shunday so‘z yuritadi, “Badiiy asarda inson vujudiga sig‘mayotgan ruhiy po‘rtanalar, toshqinlikni, ko‘ngilda tug‘ulgan ezgu niyatlarni bayon etish uchun imkoniyat ko‘proq bo‘ladi”. Yozuvchi hayotdan bir turtki oladida ana shu turtki asosida muammoni yechib yuboradigan hikoya yoki biror boshqa ijod mahsulini yaratadi. Bir necha betli yozgan hikoyasi orqali olam-olam ma’no anglatmoqchi bo‘ladi, bizga shu hikoyacha oddiy bir voqea yo hodisa bo‘lib tuyulishi mumun, lekin hikoya mazmuniga chuqurroq kirib boradigan bo‘lsak butunlay bir boshqa ma’noni anglashimiz mumkin hikoyalaridan har kim turlicha hulosalarga kelishi, eng muhumi ong-u shurimizga ijobiy ta’sir etishi yoki masalaning mohiyatini yozuvchi nima demoqchiligini anglashimiz mumkin. Ulug‘bek hamdam ijodi, ijodkorlar haqida fikr yuritar ekan shunday yozgandi: “...Ijodkor o‘z yuragining pokligiga ahamiyat bermog‘i, binobarin, o‘z qalbining bir umrlik sadoqatli qo‘riqchisiga aylanmog‘i shart. Qorayib ketgan yurak bilan nafaqat zo‘r, balkim iyona asar yozish ham mushkul. Yozish san’atning ko‘pdan, ko‘p siru-asrori tagiga. Tizgan satrlarida nainqki stilistik, balki bironta orfografik xato uchramaydigan ijodkorlarimiz bor. San’atlariga tasanno deymiz, lekin ne yoziqki, ularning aksariyatida mazmun topiqqa ham uchraydi, asardan vulqondek otilib chiqib, o‘quvchi yuragiga to‘g‘ri borib uruladigan badiiy zarb yo‘q xuddi qishda tumanlar aro xira ko‘rinib turgan quyoshdek, nursiz....”



Adabiyotshunos U.Normatov takidlaganidek: “Eng muhimi ularda so‘ngi yillar adabiyotimizda, qolaversa jahon adabiyotida ham tansiq bo‘lib turgan o‘zida yuksak idealarni tashuvchi, idealga intiluvchi qahramonlar birin-ketin bo‘y ko‘rsatayotir”.

Alanga va nur bir-biri bilan qanchalik uyg‘unlashgan bo‘lsa, hayot bilan faoliyat ham bir-biriga shu qadar mustahkam bog‘langan. Nimaiki nur sochsa, shubhasiz, yoritadi, nimaiki yashayotgan ekan, so‘zsiz harakatda bo‘ladi. Hayot kabi ijodiy jarayon ham shunchalik poyonsiz, betakror va ko‘p qirraliki, unda har bir yozuvchining ehtiyojiga, iqtidoriga yarasha o‘rin hamma vaqt topiladi. Ijod mahsuli bo‘lgan badiiy adabiyot fikr ommasi, qalb hislari bilan doimo sayqallanadigan, to‘xtashni bilmaydigan, borgan sari nurlanishi, chaqnashi oshib boradigan yog‘du. Zero, badiiy adabiyot ijtimoiy ong shakli sifatida tarixiy taraqqiyot qonuniyatlariga bo‘ysunadi.

Jamiyatda yuz bergan o‘zgarishlar badiiy adabiyotda ham o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Biror badiiy asarning tasvir nozikligini, obrazlar tizimini to‘g‘ri tushunmoq, tili, jozibasini his etmoq uchun shu asar yaratilgan davr badiiy tafakkuriga xos xususiyatlarni bilish kerak bo‘ladi.

“Davr va adabiyot g‘oyat murakkab muammodir. Chunki zamonning asosiy belgisi uning tinimsiz harakatdaligi, o‘zgarib turishi bo‘lsa, asl adabiyotning bosh xususiyati uning o‘zi yaratilgan zamonga qaraganda ko‘proq yashashga intilishi, barqarorroq bo‘lishga urinishidir.

Zamonda turib zamonni ko‘rish qiyin, uning biror jihatini baholash yanada mushkul. Shuning uchun istiqlol davri adabiyoti, unga xos belgilar haqida gapirish g‘oyat mas‘uliyatlidir.”

Bugungi kunda o‘zbek adabiyoti vakillari orasida Ulug‘bek Hamdam o‘zining chuqur sermazmun roman va hikoyalari bilan xalq og‘ziga tushgan yozuvchilardan biridir. Uning “Muvozanat”, “Isyon va Itoat”, “Sabo va Samandar” kabi romanlari, “Uzoqdagi Dilnura” qissa va hikoyalar to‘plami XX asr o‘zbek



adabiyotida o'z o'rniga ega. Shuningdek, “Tangriga eltuvchi isyon”, “Atirgul” va “Seni kutdim” she’riy to’plamlari, “Badiiy tafakkur tadriji”, “Yangilanish ehtiyoji”, “Yangi o‘zbek she’riyati” nomli monografiyalari ham nashr etilgan. Ulug‘bek Hamdam zamonaviy o‘zbek adiblari orasida asarlari boshqa tillarga ko‘p o‘girilayotgan va O‘zbekistondan tashqarida e’tirof etilayotgan oz sonli ijodkorlardan biridir. Uning “Isyon va itoat” romani, “Yolg‘izlik” qissasi, o‘nga yaqin hikoyasi va she’rlari ruschaga tarjima qilindi. Ijodkorning “Tosh” degan hikoyasi va bir qancha she’rlari ingliz tiliga o‘girildi. “Muvozanat” romani va “Tosh” hikoyasi Amerikada e’tirof etildi.

Istiqlol davri adabiyotining zabardast yozuvchilaridan biri Ulug‘bek Hamdamdir. Uning ijodini atroflicha va keng aspektda o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi ijodining pragmalingvistik nuqtayi nazaridan tadqiq qilinishi tilshunoslikda yangilik hisoblanadi. Chunki pragmatika yo‘nalishi o‘zbek tilshunosligida to‘liq tadqiq qilinmagan sohalardan bo‘lib, bu yo‘nalishda hali ilmiy izohini topmagan muammolar talaygina. Ulug‘bek Hamdam asarlarida zamonamiz kishilarining ma’naviy-axloqiy qarashlari, inson va uning taqdiriga bo‘lgan munosabatlar, shaxsning ichki ruhiyatining tasvirlanishi pragmalingvistik nuqtayi nazardan ham ahamiyatlidir.

Presuppozitsiya til birligining „ichki imkoniyati“ni namoyish etadigan hodisa hisoblanadi. Presuppozitsiyada til birligining bevosita kuzatishdaberilmagan semantik xususiyati yuzaga chiqadi. Presuppozitsiya ixsham shaklorqali ko‘p ma’lumot berishga xizmat qiladi. Shu tariqa gaplarda semantik sintaktik assimetriya paydo bo‘ladi. Presuppozitsiyada nutq ishtirokchilarivoqelik haqidagi qo‘shimcha ma’lumot yashirin ifodasini anglab yetishlarilozim. Bu ma’lumot ba’zan gapda aks etgan propozitsiyaga zid xarakterdabo‘lsa, ba’zan mazkur propozitsiyani semantik jihatdan to‘ldiradi.

Uning fikricha, presuppozitsiyaning asosiy belgisi matn orqali bayon qilingan propozitsiyaga–hukmga zid tarzda mazmuniy munosabatni



nganglanishidir. „Yana shu kunlarni esga oldi” („Sabo va Samandar” U.Hamdani) gapni presuppozitsiyasi gapning propozitiv strukturasi semantik jihatdan to‘ldiradi, voqelikning avval ham sodir bo‘lganligini ifodalaydi. Presuppozitsiya til birligining nutqiy vaziyat, matn, til egalarining nutqiy obyekti haqidagi umumiy bilimlari bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatlarni yashirin yo‘l bilan namoyish etuvchi lingvistik hodisadir. U.Rahimov presuppozitsiyani „Tagma’no va presuppozitsiya” maqolasida gapda ishtirok etayotgan bo‘laklar orqali ifodalangan ma’no emas, balki zohiriy ma’no ostidagi qo‘shimcha-botiniy ma’no deb hisoblaydi. Presuppozitsiya asosiy hollarda gapda muayyan til birligining ishorasi asosida yashirin tarzda yuzaga chiqadi. So‘zlovchi obyektiv voqelik haqidagi muayyan axborotni gapda ochiq ifoda etishni xohlamaganda presuppozitsiyaga yo‘l ochiladi. Lingvistik presuppozitsiyaning shakllanishida unga ishora qiluvchi til vositalarining lisoniy-belgi xususiyatlari muhim o‘rin tutadi. Masalan, faqat ayiruvchegaralov yuklamasi gapda o‘z qurshovidagi bo‘laklarni ajratib ko‘rsatish bilanbirga, ularning ma’nosiga zid xarakterdagi presuppozitsiyani shakllantiradi. Shu sababli nutqda faqat yuklamali sintaktik o‘ramlardan doimo zid mazmundagi axborotlar anglashiladi.

Masalan, „Voqealar...voqealar yuz beraverdi, beraverdi. Ularning har ikkisi ham o‘zlari istagan o‘qishga kirdi. Faqat biri Andijonga, boshqasi Toshkentga. (U.Hamdani „Sabo va Samandar” asari)jumlasida presuppozitsiya orqali „boshqa joyga emas” axboroti ifodalangan.

Demak, presuppozitsiya gap semantikasining yashirin uzvi sifatida bevosita ifodalanadi. Presuppozitsiya barcha tillarda kuzatiladi. U har bir tilda shu tilning ichkiimkoniyati, ifoda vositalarining o‘ziga xos xususiyati asosida belgilanadi. Bu holatpresuppozitsiyaning ifodalanishi masalasiga turli yondashuvni yuzaga keltirishi tabiiy.. „ Ha-ya, atrof yangi chiqayotgan maysalar-u kurtaklarning xush bo‘yiga, ko‘k yuzi erta kelar qushlarning raqslariga endi-endi to‘layotgan esa-da, hali havo ko‘ylakda yuradigan darajada isigan emas, keng-mo‘l xonadagi



talabalarning ayrimlari hatto qish kiyimida o'tirishmadi. Lekin negadir bizning Samandar isib ketayotgandi, bu ham yetmaganday, nutqi favqulodda noravon. Nega? Nima bo'ldi unga? Ushbu jumlada,, Ilgari bunday bo'lmagandi'' presuppozitsiyasi borligini bilib olamiz. Gapning semantik tuzilishi presuppozitsion poydevorga ega ekanini hech kim inkor etmaydi.

Shuning uchun ham „...Sabo ham boshi muhabbatning ilk xush bo'ylaridan aylana boshlaganda, qalbi ayriliqning birinchizarbalariga uchrab ozor chekkanda, Xudoyimga iltijolar qildi: „Men ishq uyida so'ngi nafasimgacha qolmoq istayman! Ishq bilan ko'z ochib, ishq bilan ko'z yumsam deyman!'' gapi“Sabo degan qizning borligi”(ekzistensial presuppozitsiya) va „Unda ishq tuyg'usi kechayotganligi”(faktiv presuppozitsiya) haqida xulosaviy hukmlarning yuzaga kelishi tabiiydir. Bular oddiy mantiqiy xulosaga ega.

Xulosa o'rnida hikoyalarida ramziy tasvirlar bilan bog'liq holda real hayot hamda hayot to'g'risidagi falsafiy tushunchalar, inson qalbida anglab bo'lmas hodisotlar katta mahorat bilan talqin etiladi. Inson harakteri ko'p qirrali bo'lib uning turli holatlarga tushishi ajoyib satrlar ila hikoyalarida aks etadi, hikoyalaridagi mazmun mohiyati yashirin, mavhum holda kelishi bizning chuqurroq va teranroq fikrlashimizga davat etadi. Ulug'bek Hamdam har bir hikoyalarida kitobxonni qiziqtirishi, tasirlantirishi mumkin bo'lgan jihatlarga ko'p duch kelamiz. Yozuvchining har bir hikoyasidan ma'naviy ozuqa olishimiz, falsafiy mulohazalarga duch kelishimiz mumkin. Ulug'bek Hamdam voqealar tavsilotiga emas, psixologik tahlil, milliy harakterlarga asoslangan, hikoyalarida rang-barang taqdirlarni, maroqli va qiziqarli qilib tanishtiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dilmurod Quronov “Adabiyot nazariyasi asoslari”. Toshkent “Navoiy universiteti” 2018





2. Tohir Shermurodov “ Hikoyalar, nihoyalar... ” maqolasi. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati ” gazetasi, 1991 yil 5 aprel.
3. Bahodir Karim “Ruhiyat alifbosi”. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijod uyi. Toshkent-2018
4. Qozoqboy Yo‘ldosh “Yoniq so‘z”. Toshkent “Yangi asr avlodi” 2006
5. No‘mon Rahimjonov “Badiiy so‘z yestetikasi”. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijod uyi. Toshkent-2017
6. Umarali Normatov “Umid baxsh tamoyillar”. Toshkent “ Ma’naviyat ” 2000